
"PROKUROR VA YOSHLAR"; UCHRASHUVLARI O'TKAZILDI

"Prokuror va yoshlar" uchrashuvlari o'tkazildi

So'x tumani Sarikanda mahallasida "Prokuror va yoshlar" uchrashuvi ochiq va samimiy ruhda bo'lib o'tdi. Ochiq muloqot davomida Farg'ona harbiy prokuraturasi vakillari bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar haqida to'xtalib o'tdilar.

Shuningdek, "Armiya va xalq – bir tanu bir jondir" degan g'oyani amalda ta'minlash, yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida harbiy qism hududidagi madaniyat saroyi hamda sport inshootlari sarikandalik yoshlar foydalanishlari uchun doimiy ochiq ekanligini ta'kidladi, - deya bizga xabar bermoqda Sarikanda mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Dodohayit Hasanov.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-14 16:23:22